

KREDIT SHARTNOMASI №

_____ shahri/tumani

__ . __ .20__ -yil

Bir tarafdin AT "Aloqabank" (bundan buyon matnda "KREDITOR" deb ataluvchi) nomidan 20__ yil __ _____dagi __-__/_-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi _____ HKXKM boshlig'i _____ timsolida va ikkinchi tarafdin _____ (bundan buyon matnda "QARZDOR" deb ataluvchi) nomidan ustav asosida faoliyat yurituvchi jamiyat direktori _____ timsolida (birgalikda "TARAFLAR" deb ataluvchi), ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. SHARTNOMANING MAZMUNI

1.1. KREDITOR QARZDORga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-62-sonli hamda 2026-yil 1-iyundagi PQ-210-sonli Qarorlariga muvofiq "Yoshlar uchun ish o'rinlari" loyihasiga asosan, shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul summasini (mablag'larini) (bundan buyon matnda "*kredit*" va/yoki "*kredit summasi*" deb yuritiladi) berish, QARZDOR esa olingan *kredit summasini* loyiha bo'yicha maqsadli ishlatish, kreditning asosiy summasi va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi.

1.2. KREDITOR QARZDORga _____ maqsadida _____ sotib olish uchun ____ (____) oy, ya'ni 20__ -yil ____ gacha muddatga, asosiy qarz to'lovlari bo'yicha ____ (____) oy imtiyozli davr asosida, Markaziy bank asosiy stavkasi + 4,0 foiz (ya'ni, yillik ____ foiz) ustama haqi to'lash sharti bilan _____ (____) so'm miqdorida kredit mablag'i ajratadi. Bunda, Markaziy bank asosiy stavkasi o'zgarsa, shu sanadan boshlab foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasi qismi mos ravishda o'zgartiriladi.

1.3. KREDITORga QARZDOR tarafidan kredit ta'minoti turlaridan biri taqdim etilgandan so'ng kredit beriladi.

1.4. QARZDOR tomonidan kredit mablag'laridan foydalanish davri shartnoma qonuniy kuchga kirgan sanadan boshlab 3 (uch) oy qilib belgilanadi. QARZDOR dastlabki 3 (uch) oy davomida kredit mablag'laridan qisman yoki umuman foydalanmasa, kredit shartnoma summasi to'liq o'zlashtirilmaganligiga qaramasdan kredit mablag'laridan foydalanish to'xtatilishi mumkin.

Kredit mablag'laridan bosqichma-bosqich foydalanishni nazarda tutuvchi tegishli asoslar mavjud bo'lgan holatlar (import shartnomasi shartlari, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish grafigi va boshqalar) bundan mustasno.

1.5. QARZDOR tomonidan kredit maqsadsiz ishlatilganda, ishsiz yosh(lar) bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ikki yil davomida bekor bo'lganda (bundan, ushbu xodimlar o'rniga bir oy muddatda boshqa ishsiz yoshlar ishga qabul qilingan hollar mustasno), mehnat shartnomasi bekor bo'lgan sanadan asosiy qarz to'lovlari bo'yicha mazkur shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan foiz stavkasi yillik 26,0 foiz miqdorida belgilanadi.

II. KREDIT SHARTNOMASI BO'YICHA HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. QARZDOR KREDITOR tarafidan ajratilgan kreditni taqdim etilgan muddatli majburiyatnoma(lar)ga yoki kreditni qaytarish jadvaliga va/yoki kredit shartnomasi shartlarida belgilangan muddatlarga muvofiq qaytaradi.

2.2. Kredit uchun foizlar kredit berilgan kundan boshlab kunlik hisoblanib, har oyning 15 kundan memorial order bilan undirib boriladi. Kredit asosiy qarzdorligi va penyalarni undirib olinishda ham memorial orderdan foydalaniladi.

Kreditni qaytarish jadvali yoki majburiyatnomada ko'rsatilgan kreditning qaytarish muddati yetib kelganda, QARZDORning hisobvarag'ida mablag' bo'lmasa, hisobvaraqqa qo'yilgan to'lov talabnomalar kartoteka-2ga kirim qilinadi.

2.3. Kredit uchun hisoblangan foizlar naqd pul yoki naqd pulsiz hisob-kitob shaklida to'lanishi mumkin.

2.4. QARZDOR kredit va/yoki foizlarni to'lash muddatini bir kunga kechiktirgan taqdirda, KREDITOR kreditning qolgan barcha summasini tegishli foizlar bilan birga muddatidan oldin qaytarishni talab qilishga va akseptsiz tarzda hisob varag'idan undirib olishga haqli.

2.5. QARZDOR kredit va/yoki foizlarni to'lash muddatini bir necha marta yoki muntazam ravishda kechiktirgan taqdirda, KREDITOR QARZDORning hisob varag'iga mablag' kelib tushganda birinchi navbatda muddati o'tgan kredit va/yoki foizlarni undiradi hamda keyingi to'lov muddati kelmaganligiga qaramasdan joriy oy uchun to'lovlarni yechib olish huquqiga ega.

2.6. Kreditning har oydagi yoki oxirgi to'lov sanasi haftaning shanba va yakshanba kunlariga, shuningdek dam olish kuni deb e'lon qilingan bayram kunlariga to'g'ri kelganda to'lov sanasi keyingi ish kuniga ko'chiriladi.

2.7. Kredit bo'yicha qarzdorlikni muddatidan avval qaytarilishiga ruxsat etiladi. Kreditni muddatidan avval qaytarilganligi uchun qo'shimcha to'lovlar undirilmaydi.

2.8. QARZDORdan kreditning to'lovi uchun Jadvalda belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa va kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismi kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirilganda Jadval qayta rasmiylashtirilmaydi. Bunda, Jadval QARZDORning arizasiga asosan bankning amaldagi tarifidan kelib chiqib, komission to'lov evaziga qayta rasmiylashtirilishi mumkin.

2.9. KREDITOR QARZDORga ajratilgan kredit to'lovlarni undirish harakatlarini amalga oshirish jarayonida undiruvni QARZDOR nomiga ochilgan har qanday hisobvaraqqa qaratishi mumkin hamda bunda QARZDORning roziligi talab qilinmaydi.

2.10. Kredit bo'yicha foizlar kredit ajratilgan kundan boshlab kreditning asosiy qarzni toliq qaytarilgan kunigacha uning qoldiq summasiga nisbatan kunlik hisoblab boriladi. Foizlar yiliga 365 kunlik asosda hisoblanadi.

2.11. QARZDOR foydalanilmagan kreditdan voz kechganda, QARZDOR tomonidan qilingan har qanday xarajatlar KREDITOR tomonidan qaytarilmaydi (qoplanmaydi).

III. KREDITORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. KREDITORNING HUQUQLARI:

3.1.1. KREDITOR kredit shartnomasining amal qilish butun davri mobaynida QARZDORning moliyaviy ahvoli hamda faoliyati natijalariga doir zaruriy hujjatlarni olish, ularni tahlil qilish, zarur hollarda tegishli hujjatlar yuzasidan izoh talab qilish, shuningdek kreditni maqsadli ishlatilishini bevosita joyiga chiqqan holda o'rganadi.

Kreditdan foydalanish davrida garovga olingan mol-mulklarning bozor narxi pasaygan, mulk yaroqsiz holga kelib qolganligi yoki unga zarar yetkazilganligi oqibatida kredit qarzdorligini qoplash uchun yetarli emas deb topilgan taqdirda, QARZDORdan qo'shimcha ta'minot talab qiladi.

Kredit ta'minotini davriy ravishda tekshirib, uning but saqlanayotgani, yetariligi va likvidligini aniqlash, garov mulki bo'yicha QARZDOR o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni qanday bajarayotganligini kreditdan foydalaniladigan butun davr mobaynida nazorat qilib boradi.

3.1.2. QARZDOR kreditning barcha to'lovlarini (shu jumladan penya ham) to'lash to'g'risida o'z vaqtida to'lov topshiriqnomalari taqdim etmasa, bu qarzlarni memorial order bilan undirib oladi.

3.1.3. Shartnomaning 4.2.16- va 4.2.17-bandlarida belgilangan holatlar yuzaga kelganida quyidagilardan biri yoki bir nechtasini amalga oshiradi:

- a) kreditning foydalanilmagan qismidan foydalanish imkoniyatini cheklaydi;
- b) kredit berishni to'xtatadi;
- v) kreditni muddatidan oldin qaytarishni talab qiladi yoki akseptsiz undirib oladi;
- d) sudlarga da'vo arizasi bilan murojaat qiladi;
- e) qonunchilikda belgilangan boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

3.1.4. QARZDOR kredit yoki foizlarni shartnomada kelishilgan muddatda qaytarmagan taqdirda, undiruvni QARZDORning likvidli mol-mulklari hisobiga amalga oshirish huquqiga ega.

3.1.5. QARZDOR kredit yoki foizlarni shartnomada kelishilgan muddatda qaytarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 280-moddasiga muvofiq, undiruvni garov predmetiga qaratish uchun asoslar vujudga kelgandan keyin, qarzdorlikni garovga qo'yilgan ko'chmas mol-mulk hisobidan sudga murojaat qilmasdan undirishi mumkin.

3.1.6. Boshqa majburiy to'lovlar bo'lmasa QARZDORning hisobvarag'iga tushgan mablag'larni to'lovlarning quyidagi navbatiga muvofiq qarzni so'ndirishga yo'naltirish:

- a) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- b) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- v) neustoyka (jarima, penya);
- g) KREDITORning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

3.1.7. QARZDOR shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, KREDITOR uning kredit mablag'laridan foydalanish bo'yicha to'lov topshiriqnomasini ijroga qabul qilmasligi yoki ijroga qabul qilingan to'lov hujjatini ijrosiz qaytarishi mumkin.

3.1.8. KREDITOR mazkur Shartnoma doirasida QARZDORning faoliyati, hisob-kitoblari, axborot tizimlari va operatsiyalariga oid hujjatlarni tekshirish, shuningdek zarurat bo'lganda audit o'tkazish huquqiga ega. QARZDOR KREDITORning bunday tekshiruvlarini amalga oshirish uchun barcha zarur ma'lumot va hujjatlarni taqdim etishi shart.

3.1.9. Shartnoma bo'yicha QARZDOR quyidagilar bo'yicha KREDITORga o'z roziligini bildiradi:

- QARZDORning AT "Aloqabank"da, hamda boshqa banklarda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan, shu jumladan, bank kartalaridan kredit bo'yicha talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni va barcha hisoblangan neustoykalarni akseptsiz tartibda hisobdan chiqarilishiga, yechib olinishiga;

- Aloqa vositalaridan foydalangan holda sms/elektron pochta/audio eshittirish/pochta jo'natish, axborot-kommunikatsiya xizmatlari orqali pochta jo'natmalarini va bildirishnomalarni jo'natilishiga;

- Davlat personallashtirish markazidan olingan shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga hamda kredit byurolari, soliq organlari uy-joy kommunal xizmatlari, uyali aloqa operatorlari, protsessing markazlari (Uzcard, Humo va boshqalar) tijorat banklari va boshqa tashqi manbaalardan shaxsga doir ma'lumotlardan foydalangan holda ma'lumotlarni olishga.

3.2. KREDITORNING MAJBURIYATLARI:

3.2.1. KREDITOR QARZDORga ajratiladigan kreditni (foizlarni) buxgalterlik hisobini yuritish uchun alohida tegishli hisobvaraqlar ochadi va hisobvaraqlarga bepul asosda xizmat ko'rsatadi.

3.2.2. Kreditni muddatidan oldin undirib olish uchun yetarli asoslar yuzaga kelganda, mavjud qarzdorliklarni undirish choralari ko'radi.

3.2.3. Kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu kredit bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab

keyingi ish kunidan kechiktirmasdan QARZDORga Kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda xabarnoma yuborish;

3.2.4. Kredit muddatidan oldin undiriladigan hollarda bu to'g'risida QARZDORni Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda xabardor qilish.

IV. QARZDORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. QARZDORNING HUQUQLARI:

4.1.1. "Yoshlar uchun ish o'rinlari" loyihasi doirasida ushbu shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida belgilangan muddatda va summada kredit oladi.

4.1.2. Kreditni muddatidan oldin qaytarishi mumkin.

4.1.3. QARZDOR kreditni qonunda taqiqlanmagan yo'nalishda maqsadli foydalanib, taqdim qilgan biznes-rejaga asosan yoshlarga yangi ishchi o'rinlarini yaratsa (ishchi o'rin yaratilganligi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va yagona ijtimoiy to'lov to'langanligi bilan aniqlanadi) hamda biznes rejaga muvofiq bank hisobvarag'ida faoliyati yuzasidan pul aylanmalarini amalga oshirsa, hisobvaraqlariga bepul asosda bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

4.1.4. Shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab pul mablag'lari ajratilgunga (o'tkazib berilgunga) qadar kreditni olishdan bepul voz kechish;

4.1.5. Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni KREDITORga to'liq qaytarilgan holda ushbu Shartnomani muddatidan avval bekor qilish.

4.1.6. Kreditni istalgan vaqtda muddatidan oldin jarima sanksiyalarisiz so'ndirish.

4.2. QARZDORNING MAJBURIYATLARI:

4.2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-iyundagi PQ-210-sonli Qaroriga muvofiq QARZDOR quyidagilarni ta'minlaydi:

- "Yoshlar uchun ish o'rinlari" loyihasi asosida YaTTlar kamida 2 (ikki) nafar ishsiz yoshni hamda yuridik shaxslar loyiha xususiyatidan kelib chiqib, har bir milliard so'm qiymatgacha bo'lgan mablag' uchun kamida 2 (ikki) nafar ishsiz yoshni ishga qabul qilishni;

- QARZDOR ushbu imtiyozli kredit olishiga sabab bo'lgan ishsiz yosh(lar) o'rtasida ikki yil davomida mehnat shartnomasi bekor bo'lgan taqdirda, ushbu xodim(lar) o'rniga bir oy muddatda boshqa ishsiz yosh(lar)ni ishga qabul qilishni;

- Ishsiz yosh(lar)ni ish bilan ta'minlashda mehnat shartnomasida ish haqi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2 baravaridan kam bo'lmasligini.

Shuningdek, ishchilarga AT "Aloqabank"da ish haqi kartalarini ochishni hamda ish haqi to'lovlarini mazkur bank kartalari orqali to'lab borishni ta'minlaydi.

4.2.2. QARZDOR kreditning asosiy qarzdorligini hamda kredit uchun hisoblangan foizlarni mazkur shartnomada belgilangan shartlar va muddatli majburiyatnomalarga, shuningdek, qaytarish jadvaliga muvofiq to'laydi.

4.2.3. QARZDOR kredit ta'minoti sifatida:

- _____ garovini;

- _____ garovini;

- _____ garovini;

- " _____ " to'liq kafilligini taqdim qiladi.

Kredit hisobiga sotib olinadigan mulklar va/yoki garovga qo'yilishi belgilangan mulklar bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda egalikni tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilishini ta'minlash hamda garovga qo'yish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab, 10 (o'n) bank ish kunida bankka garovga qo'yish, agar ushbu muddat davomida garovga qo'yilishi belgilangan garov narsasi garovga qo'yilmagan hollarda kredit foiz miqdorini 2 (ikki) foiz yuqori oshirilgan miqdorda to'lash majburiyatini oladi. Mazkur talab doirasida garov narsasi garovga taqdim etilishi bilan kreditga dastlabki belgilangan miqdorlarda foiz hisoblanadi.

4.2.4. QARZDOR o'z majburiyatlarini ta'minoti sifatida taqdim qilingan garov obyektini but va ishchi holda saqlanishini ta'minlaydi, shuningdek, garovga qo'yuvchi tarafidan but va ishchi holda saqlanishini nazorat qilib boradi.

4.2.5. Kreditning kamida 125 (bir yuz yigirma besh) foiz miqdorda ta'minlanganligini ushlab turadi.

4.2.6. KREDITOR oldidagi majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar pul mablag'laridan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga qarz berish uchun foydalanmaydi, shuningdek boshqa kreditorlar oldida QARZDORning to'lov qobiliyati yomonlashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan majburiyatlar olmaydi.

4.2.7. KREDITORni yozma ravishda xabardor qilmay turib, shu'ba xo'jalik jamiyatlari (shu'ba korxonasi) tashkil etmaydi.

4.2.8. KREDITOR va uchinchi shaxslar QARZDORning depozit hisobvarag'iga bir vaqtning o'zida to'lov talabnomalari taqdim etgan hollarda (agar 2-kartoteka bo'lmasa), uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlardan avval, kreditni qaytarishga doir majburiyatlar bajarilishini birinchi navbatda ta'minlaydi (birinchi navbatdagi to'lovlardan va sud qarorlari bo'yicha to'lovlardan tashqari).

4.2.9. Oldindan, ya'ni kreditni qaytarish yoki kredit bo'yicha navbatdagi to'lov muddati tugashidan avval mablag'lar to'planadigan maxsus (foizsiz) hisobvaraqa kredit va/yoki foizlar bo'yicha kelgusi, navbatdagi to'lov uchun yetarli summani o'tkazadi va shundan keyingina QARZDOR foydasidan muassislarga dividendlar to'laydi.

4.2.10. Monitoring qilish maqsadida yaratilgan yangi ish o'rinlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni KREDITORning birinchi so'rovi bilan taqdim qilish, faoliyatini o'rganishga sharoit yaratib berish, statistika idoralari tasdiqlagan shakllarda tuzilgan yillik va choraklik hisobotlar to'plamlarini (soliq organlari tomonidan qabul qilingan tegishli moliyaviy hisobotlar), shuningdek, KREDITOR talabiga ko'ra nazorat va maqsadli tekshiruvlar o'tkazish uchun zarur boshqa hujjatlarni KREDITORga o'z vaqtida taqdim etish. KREDITORning vakolatli mutaxassislari birlamchi buxgalteriya hujjatlari va omborda hisob yuritish hujjatlarini o'rganishi uchun sharoit yaratilishini ta'minlaydi.

4.2.11. QARZDORning moliyaviy ahvoriga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi, majburiyatlarning bajarmaslik ehtimolini keltirib chiqaruvchi har qanday noxush o'zgarishlar yoki yuzaga kelgan shart-sharoitlar to'g'risida darhol KREDITORga xabar beradi.

4.2.12. QARZDOR o'zining tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirayotganligi yoki qayta tashkil etilayotganligi to'g'risida KREDITORni oldindan xabardor qiladi.

Qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda shartnomada ko'rsatilgan muddatdan qat'i nazar zudlik bilan kredit va hisoblangan foiz to'lovlarini to'liq miqdorda to'laydi.

4.2.13. Garov obyektini qonunchilikda belgilangan asoslarga ko'ra (jumladan, jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etganlik uchun) garovga qo'yuvchidan olib qo'yilganda yoki garov obyektiga zarar yetkazilganda 10 (o'n) bank ish kuni ichida mavjud kredit va foiz qarzdorligini to'liq qoplay oladigan boshqa mol-mulk taqdim etadi.

4.2.14. KREDITORga taqdim qilgan biznes-reja ko'rsatkichlariga to'liq amal qilinishini ta'minlaydi.

4.2.15. Kreditdan bosqicha-bosqich yoki qismlarga bo'lgan holda foydalanilganda, mablag'larning maqsadli ishlatilganligini asoslovchi hujjatlarni ular rasmiylashtirilgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kunidan, shuningdek, tegishli oyning oxirgi sanasidan kechiktirmasdan KREDITORga taqdim qiladi.

4.2.16. QARZDOR ajratilgan kredit mablag'larini qonunchilikda taqiqlangan yo'nalishlarda ishlatishi mumkin emas. Kredit mablag'larini qonunchilikda taqiqlangan yo'nalishlarda ishlatish holatlariga QARZDOR to'liq javobgar hisoblanadi.

4.2.17. Quyidagilarning istalgan bittasi yoki bir nechtasining yuzaga kelganligi QARZDOR tomonidan majburiyatlarning lozim darajada bajarilmayotganligidan dalolat beradi:

- a) shartnoma bo'yicha har qanday to'lovning muddatida amalga oshirilmashligi;
- b) kreditning to'liq yoki qisman maqsadsiz ishlatilishi;
- d) kredit hisobiga amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha tovarlarning to'liq yoki qisman yetkazib berilmashligi, shuningdek ishlar yoki xizmatlarning to'liq hajmda bajarilmashligi;

- e) hisobraqam orqali 90 (to'qson) kun va undan ortiq vaqt mobaynida umuman bank amaliyotlari (*kreditning asosiy summasi va unga hisoblangan foizlar bo'yicha to'lovlardan tashqari*) amalga oshirilmaligi;
- f) buxgalteriya hisobi va/yoki hisobotining buzilishi, ularning qalbakilashitirilishi, soxtalashtirilishi yoki noto'g'ri hisobotlarning taqdim etilishi;
- g) ma'lumot va/yoki hujjatlarning qalbakilashitirilishi, soxtalashtirilishi yoxud noto'g'ri ma'lumot va/yoki hujjatlarning taqdim etilishi;
- h) KREDITORni yozma ravishda xabardor qilmay turib, ustav kapitali (fondi)ning kamaytirilishi;
- i) KREDITORni yozma ravishda xabardor qilmay turib, qayta tashkil etilishi (qo'shib yuborilishi, qo'shib olinishi, bo'linishi, ajralib chiqishi, o'zgartirilishi);
- j) KREDITORga faoliyati va hisobot hujjatlarini tekshirishga to'sqinlik qilinishi yoki hujjatlarini taqdim etishdan bosh tortilishi;
- k) ta'minot obyektiga zarar yetkazilganligi yoki talon-taroj qilinishi, shuningdek, bozor kon'yukturasi narxlarining kamida 25 (yigirma besh) foizga pasayib ketishi yoki boshqacha holatlar natijasida kredit ta'minlanmay qolish xavfining vujudga kelishi, bosharti ta'minotni o'zgartirish yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etish bo'yicha KREDITOR talabining bajarilmasligi;
- l) uchinchi shaxslar oldida muddati o'tgan majburiyatlarning mavjudligi;
- m) kredit ta'minoti o'z likvidligi, qiymati va kuchini yo'qotishi;
- n) vakolatli organlar tomonidan QARZDORga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llanilishi;
- o) QARZDORning bankrot deb e'lon qilinishi;
- p) KREDITOR roziligisiz boshqa bank yoki xo'jalik yurituvchi subyektlardan qarz va boshqa majburiyatlarning olinishi;
- q) Kredit monitoringidan bo'yin tovlashlik yoki bank xodimlari (jalb qilingan mutaxassislar)ni monitoring o'tkazishiga har qanday usullar bilan to'sqinlik qilishi;
- r) Kreditlanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida ekologiya talablarining buzilganligi va h.k.;
- s) Kredit hisobiga sotib olinadigan mulklar va/yoki garovga qo'yilishi belgilangan mulklar bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda egalikni tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilishini ta'minlamasa hamda garovga qo'yish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab, 10 (o'n) bank ish kunida bankka garovga qo'yish majburiyatini bajarmasligi;
- t) QARZDORning shartnoma shartlarini bajarmasligi.

4.2.18. "QARZDOR KREDITORga mazkur shartnoma doirasidagi majburiyatlarni bajarish, kredit bo'yicha qarzdorlikni hisoblash va undirish maqsadida bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni KREDITOR bilan shartnoma asosida maxfiylik majburiyatini olgan uchinchi shaxslarga taqdim etishga rozilik beradi. Uchinchi shaxslar bank sirini saqlash majburiyatini o'z zimmsiga oladi va uni oshkor etganlik uchun qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.

4.2.19. QARZDOR o'z faoliyatini amalga oshirish uchun talab etiladigan barcha litsenziya va ruxsatnomalarga ega ekanligini kafolatlaydi hamda ularning amal qilish muddati davomida haqiqiylikini ta'minlaydi. Litsenziya yoki ruxsatnoma bekor qilingan yoki to'xtatilgan taqdirda, QARZDOR bu haqda KREDITORni darhol xabardor qilishi shart.

V. QARZNI TAN OLISH VA BAHSSIZLIK

5.1. QARZDOR mazkur shartnoma bo'yicha olingan kredit summasi, foizlar va boshqa to'lovlar miqdorini to'liq va so'zsiz tan oladi.

5.1. QARZDOR mazkur majburiyatlar mavjudligi hamda ularning miqdori, to'lash muddatlari va hisob-kitob tartibi nizoli emasligini oldindan tasdiqlaydi.

VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Mazkur shartnomaning 4.2.16- va 4.2.17-bandlarida belgilangan holatlardan biri yuz berganligi KREDITOR tomonidan tasdiqlansa, kredit shartnoma bo'yicha asosiy qarz, unga

hisoblangan foiz va boshqa shartnomaviy majburiyatlar QARZDORdan (tegishli hollarda to'lov talabnomasi) akseptsiz tarzda undirib olinadi.

6.2. KREDITOR tomonidan kredit shartnomasi bo'yicha foiz, komissiya va neustoyka (shtraf, penya)larni hisoblash va undirish, shuningdek javobgarlikning boshqa choralari qo'llashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3620-sonli qarori talablariga rioya etiladi.

6.3. QARZDOR tomonidan majburiyatlar bajarilmasligi holati yuzaga kelganda KREDITOR QARZDORning kreditdan keyingi foydalanish huquqini to'xtatib turishi yoki shartnomani bekor qilishi hamda kredit mablag'ini to'lig'icha yoki uning bir qismini muddatidan oldin qaytarilishini talab qilishi mumkin.

Kredit shartnoma bo'yicha QARZDOR tomonidan bajarilmagan majburiyatlar oqibatida KREDITOR tomonidan QARZDORga qo'yilgan tegishli talabnoma mazkur shartnomaga asosan QARZDOR tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

6.4. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan Taraf ikkinchi Tarafga yetkazilgan zararni to'liq miqdorda to'laydi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda javob beradi.

6.5. QARZDOR o'z faoliyati, boshqaruvi yoki moliyaviy holatiga doir muhim o'zgarishlar yuz bergan taqdirda KREDITORni o'z vaqtida habardor qilish majburiyatini oladi. Xususan, quyidagi holatlar yuzaga kelgan taqdirda QARZDOR mazkur holatlar yuz bergan sanadan e'tiboran 3 (uch) ish kun ichida KREDITORni yozma ravishda xabardor qilishi shart:

- QARZDORga nisbatan bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilganligi, bankrotlik tartib-taomillari boshlanganligi yoki to'lovga qobilyatsizlik holatining yuzaga kelishi;

- QARZDORning ta'sischilari, benifitsiar mulkdorlari yoki ijro etuvchi organi rahbarining o'zgarishi;

- QARZDORning moliyaviy barqarorligiga yoki o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy holatdagi o'zgarishlar;

- Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa muhim holatlar.

Ushbu bandeda nazarda tutilgan holatlar to'g'risida KREDITORni o'z vaqtida xabardor qilmaslik KREDITORga mazkur Shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish, bir tomonlama bekor qilish yoki amaldagi qonunchilikka ko'ra boshqa choralarni ko'rish huquqini beradi.

6.6. QARZDOR o'z vaqtida xabar bermaslik natijasida KREDITORga yetkazilgan barcha to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita zararlar, boy berilgan foyda hamda boshqa xarajatlarni jamiyatning barcha mol-mulki, pul mablag'lari, mulkiy huquqlari va boshqa aktivlari hisobidan to'liq qoplash majburiyatini oladi.

6.7. QARZDOR mansabdor shaxslarining aybi yoki harakatsizligi natijasida KREDITORga zarar yetkazilgan taqdirda, KREDITOR amaldagi qonunchilikka muvofiq ushbu shaxslarning shaxsiy mol-mulki va aktivlariga nisbatan ham talab qo'yish va undirish choralari ko'radi.

Mazkur holatlar KREDITORga Shartnomani bir tomonlama bekor qilish, xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish va zararlarni qoplashni talab qilish huquqini cheklamaydi.

6.8. QARZDOR bankrotlik holatiga tushgan taqdirda, KREDITOR QARZDOR oldidagi barcha qarzdorliklarni o'zaro hisobga olish tartibida qoplash huquqiga ega.

6.9. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarliklar amaldagi qonunchilik asosida hal etiladi.

VII. JAVOBGARLIKDAN OZOD QILUVCHI HOLATLAR

7.1. Taraflar yengilmas kuch ta'siridagi holatlar (fors-major), ya'ni Taraflar oldini olmaydigan, ularning irodasi va xohishidan tashqari vujudga keladigan holatlar natijasida mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklarini isbotlab bera olsalar va Taraflar o'z majburiyatlarini bajarish uchun mavjud barcha choralarni ko'rgan bo'lsalar, javobgarlikdan ozod etiladilar.

7.2. Fors-major holatlarga yong'in, suv toshqini, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, epidemiya, texnik fojealar, xarbiy harakatlar, favqulotda vaziyatlar, davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, bank to'lov tizimi ishdan chiqishi, elektr tarmoqlarining uzilishi va boshqa shu kabi holatlar kiradi.

7.3. Fors-major holati natijasida mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmagan Taraf boshqa Tarafga ushbu haqida fors-major holati vujudga kelgan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida xabar berishi shart.

7.4. Fors-major holatlar vujudga kelgan hollarda, shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi fors-major holat davom etgan muddatga kechiktiriladi.

VIII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Mazkur shartnomani bajarilishi bilan bog'liq tarzda Taraflar o'rtasida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar o'zaro kelishuv orqali hal etiladi.

8.2. Agar nizo kelishuv bilan hal qilinmasa, ushbu shartnoma bo'yicha yuzaga keladigan har qanday nizo "Iste'molchilarga Huquqiy yordam" nodavlat notijorat tashkiloti huzurida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Hakamlik sudida (Toshkent shahri, Yangihayot tumani, Fayzli MFY, Rayhon ko'chasi 107-uy) uning Nizomi, Reglamenti hamda Hakamlik ishini ko'rishda hakamlik sudi yig'imi, xarajat-chiqimlari to'g'risidagi Nizomda nazarda tutilgan shart va tartib asosida ko'rib chiqishga topshiriladi.

8.3. Hakamlik sudi ishni o'z reglamenti va amaldagi qonunchilik asosida ko'rib chiqadi. Hakamlik sudining qarorlari Tomonlar uchun majburiy hisoblanadi va ixtiyoriy ravishda ijro etilmasa tegishli sud tomonidan ijro varaqasi beriladi;

8.4. Hakamlik sudi qarori yakuniy va Tomonlar uchun majburiy hisoblanadi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda ijro etiladi.

8.5. Tomonlar mazkur shartnomaga imzo qo'yish orqali, hakamlik sudida ishni ko'rishga ixtiyoriy rozilik bergan hisoblanadilar.

IX. SHARTNOMANI BEKOR QILISH YOKI O'ZGARTIRISH ASOSLARI VA TARTIBI

9.1. Shartnomani bir taraflama o'zgartirishga yoki bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi, mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

9.2. Mazkur shartnomani bekor qilmoqchi yoki o'zgartirmoqchi bo'lgan Taraf ikkinchi Tarafga shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirish shartlarini ko'rsatgan holda shartnomani bekor qilish to'g'risida taklif yuboradi.

9.3. Mazkur shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi taklifni olgan Taraf, uni olgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida taklifni ko'rib chiqib, ikkinchi Tarafga javob xati yuboradi. Ushbu muddat ichida taklifni olgan Taraf ikkinchi Tarafga taklif yuzasidan javob xati yubormagan taqdirda, taklif yuborgan Taraf shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi da'vo ariza bilan sudga murojaat etishi mumkin.

9.4. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirishlar yozma shakldagi qo'shimcha bitimlar bilan rasmiylashtirilgan holda uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi va imzolangan kundan qonuniy kuchga kiradi.

X. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

10.1. Taraflar, ularning afillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajaradi, ikkinchi tomonning qaror qabul qilishga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

10.2. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

10.3. Agar shartnoma taraflarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda (*yoki bankning Komplayens nazorat boshqarmasi/Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi rahbariga aloqa kanallari yordamida*) xabar berish majburiyatini oladi.

10.4. Xabarni olgan Taraf haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lguncha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xatib turish huquqiga ega.

10.5. Pora berish evaziga ikkinchi Taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan Taraf ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini oladi.

XI. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI

11.1. Mazkur Shartnoma Taraflar tomonidan imzolagan sanadan boshlab qonuniy kuchga kiradi va Taraflar shartnomadan kelib chiquvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajarib bo'lgunlariga qadar amal qiladi.

XII. SHARTNOMANING YAKUNIY SHARTLARI

12.1. Mazkur shartnoma har biri bir xil yuridik hujjat maqomiga ega bo'lgan ikkita nusxada tuzilgan bo'lib, bir nusxadan Taraflarda saqlanadi.

12.2. O'zlarining yuridik manzillari o'zgargan taqdirda, tomonlar bir-birlarini bu haqda xabardor qilishlari shart.

12.3 Mazkur shartnoma shartlari, unga kiritilgan qo'shimchalar va shartnoma yuzasidan Taraflar olgan boshqa ma'lumotlar konfidensial hisoblanib, oshkor etilmaydi. Ushbu shart tomonlar vakolatli davlat organlariga axborot berishi, shuningdek QARZDOR O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda rasmiy organlarga hisobot taqdim etishi hollariga dahldor emas.

12.4. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan holatlar amaldagi qonun hujjatlariga asosan hal etiladi.

XIII. TARAFLARNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

KREDITOR

“QARZDOR”

AT “Aloqabank”

h/v 10301000100000401001

MFO 00401

STIR 200829053

Manzil: _____

Tel: _____

_____ HKXKM direktori

Bosh buxgalter:

h/v _____

MFO: _____

STIR _____

Manzil: _____ viloyati,
_____ tumani, _____,

_____.

Tel: _____

Rahbar:

Bosh buxgalter:

M.O'.

Yuridik xizmat boshlig'i

M.O'.

KREDIT SHARTNOMASINING ASOSIY SHARTLARI BILAN

TANISHUV VARAQASI

Kredit summasi: _____ (_____) so‘m.

Kredit muddati: ____ (_____) yil.

Imtiyozli davri: _____ (_____) oy.

Foiz stavkasi: yillik ____% foiz ustama haq olish sharti bilan

Muddati o‘tgan qarzdorlik bo‘yicha foiz stavkasi:

- to‘lov kechiktirilgan muddatga: 1,0 baravar yoki yillik ____%

Muddati o‘tgan qarzdorlik bo‘yicha penya: kechiktirilgan har bir kun uchun 0,0%.

Kredit asosiy summasini qaytarish muddati: har oyning 15-sanasiga qadar.

Kredit foizini qaytarish muddati: har oyning 15-sanasiga qadar.

Kredit ta‘minoti: Kredit hisobiga sotib olinayotgan _____ garovi, sotib olinayotgan transport vositalari garovga olingunga qadar kredit qaytmaslik xataridan sug‘urtalash polisi va _____ transport vositalari garovlarini hamda _____ ning to‘liq kafilligini taqdim qiladi.

Grafik bo‘yicha bir oylik o‘rtacha to‘lov (jami): _____ so‘m (asosiy va foiz qarzdorlik grafik bo‘yicha hisoblanadi)

- **asosiy qarz bo‘yicha:** _____ so‘m

- **foiz to‘lovi bo‘yicha:** _____ so‘m

Kredit shartnomasining har bir bandini shaxsan o‘qib chiqib, uning mazmuni bilan tanishdim.

Shartnoma Taraflarning huquqiy tengligi, xohish irodasi hamda o‘zaro manfaatligi asosida to‘g‘ri tuzilganligini tasdiqlayman.

Biznes-reja ko‘rsatkichlarining to‘liq bajarilishini, shuningdek pul oqimlari hisobidan bank krediti va unga hisoblangan foizlarning o‘z vaqtida to‘liq qaytarilishini kafolatlayman.

Bundan tashqari, mazkur shartnomani bajarilishi bilan bog‘liq kelishuv yo‘li bilan hal etilmagan nizolar “Iste‘molchilarga Huquqiy yordam” nodavlat notijorat tashkiloti huzurida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi Hakamlik sudida (Toshkent shahri, Yangiheyot tumani, Fayzli MFY, Rayhon ko‘chasi) ko‘rib chiqilishiga hamda KREDITORga mazkur shartnoma doirasidagi majburiyatlarni bajarish va undirish maqsadida bank sirini tashkil yetuvchi ma‘lumotlarni KREDITOR bilan shartnoma asosida maxfiylik majburiyatini olgan uchinchi shaxslarga taqdim yetishga rozilik beraman.

Hakamlik sudi qarori yakuniy va Tomonlar uchun majburiy hisoblanishini hamda qonunchilikda belgilangan tartibda ijro yetilishini tasdiqlayman.

To‘lovlar kechiktirilgan taqdirda KREDITOR tomonidan ko‘riladigan choralarning huquqiy oqibatlarini to‘g‘risida ogohlantirildim.

Qarz oluvchiga qo‘shimcha talablar:

- “Yoshlar uchun ish o‘rinlari” loyihasi asosida YaTTlar kamida 2 (ikki) nafar ishsiz yoshni hamda yuridik shaxslar loyiha xususiyatidan kelib chiqib, har bir milliard so‘m qiymatgacha bo‘lgan mablag‘ uchun kamida 2 (ikki) nafar ishsiz yoshni ishga qabul qilish;

- QARZDOR ushbu imtiyozli kredit olishiga sabab bo‘lgan ishsiz yosh(lar) o‘rtasida ikki yil davomida mehnat shartnomasi bekor bo‘lgan taqdirda, ushbu xodim(lar) o‘rniga bir oy muddatda boshqa ishsiz yosh(lar)ni ishga qabul qilish;

- Ishsiz yosh(lar)ni ish bilan ta‘minlashda mehnat shartnomasida ish haqi mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2 baravaridan kam bo‘lmaslik.

Shuningdek, ishchilarga AT “Aloqabank”da ish haqi kartalari ochishni hamda ish haqi to'lovlarini mazkur bank kartalari orqali to'lab borishni ta'minlaydi.

KREDITOR

“QARZDOR”

AT “Aloqabank”

Amaliyot HKXKM direktori:

M.O'.

M.O'.

Tanishuv varaqasi 2 nusxada imzolandi:

*1-nusxasi – QARZDORga taqdim qilindi;
tikildi;*

2-nusxasi – kredit yig'majildiga

Kredit inspektori:

(imzo)

(sana)



HUJJAT ELEKTRON IMZO BILAN
IMZOLANGAN

Sertifikat: dba4f4848206dbb3790078a0b6db8a08b9f54d22

Egasi: **Irisbekova Kammuna Narinbayevna**

Lavozimi: **Boshqaruv Raisi v.b.**

Muddati: 14.05.2025 yildan 14.05.2027 yilgacha amalda